

OILAVIY BIZNES RIVOJI - FAROVONLIK GAROVI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlashda moliya muassasalari faoliyati muhim o'rin tutadi. Bunda, xususan, aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb etish, korxonalarining investitsiyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish, aholiga ko'rsatilayotgan bank-moliya xizmatlari sifatini oshirish katta ahamiyatga ega.

«Asaka» aksiyadorlik tijorat bankining Qoraqalpog'iston filiali ana shu yo'nalishdagi ishlarni muvaffaqiyatli olib borib, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb etish, milliy va xorijiy valyutada kreditlar ajratish, lizing amaliyoti kabi bir qator xizmatlarni bajarmoqda. Aholi va yuridik shaxslardan jalb etilgan mablag'lar iqtisodiyotning real sektoriga samarali yo'naltirilib, ushbu mablag'lar omonatchilar, mijozlar va akssiyadorlar manfaatiga mos ravishda ko'paytirib borilmoqda. Shundan kelib chiqib, «Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun» tamoyili mazkur moliya muassasasi faoliyatining asosiy dasturilamalidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, joriy yil 1 aprel holatiga bank filiali kredit qo'yilmalari hajmi 147,9 mlrd.so'mni tashkil etgani va kreditlarning asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etgani so'zimizning yaqqol tasdig'idir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yangi mulkdorlar sinfi shakllanib, kichik va xususiy korxonalar, tadbirkorlar faoliyati tobora rivojlanib borayotganini kuzatish mumkin. Ayniqsa, oilaviy biznesni yaxshi yo'lga qo'yayotgan tadbirkorlar soni ortmoqda. Bunda ularni boshlang'ich sarmoyani shakllantirishda qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Masalan, bank filiali joriy yilning birinchi choragi mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 12,1 mlrd.so'mdan ziyod miqdorda kreditlar ajratdi. Natijada yaratilgan yangi ish o'rinlari orqali yurtdoshlarimizning doimiy ish bilan bandligi ta'minlandi.

-Korxonamiz tashkil etilganidan buyon «Asaka» bank Qoraqalpog'iston filiali bilan o'zaro hamkorlik qilib kelamiz, - deydi Nukus tumanidagi **«Nukus Baliq» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Nurmahambet Primbetov.** - Bizning korxonamiz baliq mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan. Biz ko'p yillardan buyon «Asaka» bank bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yib, o'tgan yillarda o'z ish faoliyatimizni rivojlantirish va kengaytirish maqsadida bankning Qoraqalpog'iston filialidan uzoq muddatli kredit oldik. Bu esa baliqchilik ho'jaligimizda rekonstruktsiya ishlarini bajarish, hovuzlarni qayta ta'mirlash hamda korxonamizga kerak bo'lgan yangi yuk tashish avtotransport vositalarini olish imkoniyatini berdi. Ushbu loyihani amalga oshirilishi natijasida qishloq aholisining 10 nafari ish bilan ta'minlandi. Demak, shuncha oilaning daromadi yanada ko'payishiga, turmush farovonligining oshishiga o'z hissamizning borligidan xursandmiz. Hozirgi paytda faoliyatimizda yana bir yangi yo'nalish, g'isht ishlab chiqarish korxonasini tashkil etish niyatidamiz. Korxonamiz ishga tushgach yiliga 15 mln.dona yuqori sifatli g'isht ishlab chiqarishga erishamiz. «Asaka» bank rahbariyati bu ishda bizni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanligini bildirib, o'zlarining zarur maslahatlarini bermoqdalar. Biz mazkur

loyihani ushbu yilda ishga tushirish uchun barcha imkoniyatlarimizni ishga solmoqdamiz. Korxonaning ishga tushishi natijasida 50 nafar yangi ish o'rinlari yaratishni rejalashtirganmiz. O'z navbatida shuncha oilaning turmush farovonligini oshishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2015 yil 15 maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonining qabul qilinishi ayni sohada izchil amalga oshirilayotgan islohotlarni yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalangan ko'plab tadbirkorlar bugungi kunda ham oilasi farovonligiga, ham mamlakatimiz iqtisodiyoti taraqqiyotiga munosib ulush qo'shmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 21 dekabrda topshirig'iga asosan, respublikamizda uzumchilikni rivojlantirish, mavjud uzumzorlarning unumdorligini oshirish, mahsulotni qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Ta'kidlash lozimki, "Asaka" bank Qoraqalpog'iston filiali tomonidan ushbu sohani rivojlantirish maqsadida ham faol ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, bank filiali tomonidan uzumchilikka ixtisoslashgan agrofirma hamda fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kreditlar taklif etilmoqda. Ayni paytda mazkur yo'nalish bo'yicha Ellikqal'a, Konliko'l, Qo'ng'iro't, Taxtako'pir va Amudaryo tumanlaridagi fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatilayotgan bo'lsa, kelajakda xizmat geografiyasi yanada kengaytirilishi rejalashtirilgan.

Yilning ayni davriga qadar uzumchilikni rivojlantirish maqsadida kichik biznes subyektlariga 1,5 mlrd.so'mga yaqin miqdorda imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kreditlar ajratildi. Tadbirkorlar uzoq muddatga berilgan mablag'lardan sohaga doir texnika va texnologiyalar sotib olish, zamonaviy sovutish kameralari qurish maqsadlarida foydalanishmoqda.

«Adambay Salovat» fermer xo'jaligi ham shunday korxonalaridan biridir.

– Xo'jaligimizda jami 16,5 gektar bog'zor mavjud bo'lib, shundan 3 gektari uzumzordir – deydi, «**Adambay Salovat**» **fermer xo'jaligi rahbari Adambay Atabaev**. Bu yil o'z faoliyatimizni yanada kengaytirish maqsadida «Asaka» bank Qoraqalpog'iston filialidan imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit rasmiylashtirdik. Ushbu kredit mablag'lari hisobiga qishloq xo'jalik mahsulotlarni saqlash uchun 300 tonnalik muzlatgich barpo etish ishlarini boshladik va qishloq xo'jalik texnikalari oldik. Buning natijasida qo'shimcha 15 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu bilan, o'z oilamdan tashqari yana 15 nafar oilaning daromadi ko'payishiga, farovonligi ortishiga hissa qo'shayapman.

Kanliko'l tumanidagi «Oltinko'l Azamatlari» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga aholi va fermer ho'jaliklariga mevali ko'chatlar yetkazib berish uchun aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadida imtiyozli shartlarda kredit mablag'lari ajratildi. Hozirda ushbu korxonaga yetkazib bergan mevali ko'chatlar 250 ga maydonga ekilib, 3-4 yildan keyin xalqimiz dasturxonini, qolaversa qo'shni

davlatlardagi iste'molchilarni dasturxonini sifatli mevalarga to'ldirishda o'z hissasini qo'shadi. Shuning bilan birga korxonada qo'shimcha 5 nafar yangi ish o'rinlari yaratilib, qishloq yoshlari ish bilan ta'minlandilar.

Bank filiali tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlariga asosan 2,8 mlrd.so'mga yaqin miqdorda kredit mablag'lari ajratildi. Bu sarmoyalar raqobatbardosh oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar tayyorlashni o'zlashtirish kabi istiqbolli loyihalarga yo'naltirildi. Pirovardida ko'plab yangi ish joylari tashkil etilib, aholining, ayniqsa, qishloqda yashovchilarning bandligi ta'minlandi.

Ellikqala tumanidagi «**Boston Agrosanoat Savdo**» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan texnologik uskunalar olishga imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kredit mablag'lari ajratildi. Korxonada tejamkor, ya'ni kam energiya quvvati sarflaydigan zamonaviy uskunalar o'rnatildi. Ushbu uskunalar o'rnatilgandan keyin, bu yerda qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlanib, bir yilda 25,0 ming tonnaga yaqin quritilgan mevalar va ziravorlar ishlab chiqarish quvvati yaratildi. Shuning bilan birga korxonada qo'shimcha 5 nafar yangi ish o'rinlari yaratilib, shuncha kishi muqim ish o'rinlariga ega bo'ldi. Bu ham bank kreditining samarasidir.

«Asaka» bankning sarmoyalari xizmat ko'rsatish va servis sohasini yaxshilashda muhim omil bo'lmoqda. Bank filiali tomonidan ushbu maqsadlarga 6,4 mlrd.so'mga yaqin miqdorda kreditlar ajratildi. Misol uchun, Nukus shahrida faoliyatini boshlagan «**Sultanbek Nukus**» mas'uliyati cheklangan jamiyati bank filiali tomonidan mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatini ko'rsatishni yaxshilash maqsadida uzoq muddatli kredit mablag'lari ajratildi. Bank krediti hisobiga Nukus shahri markazida mehmonxona va restoran binosi qad ko'tarmoqda. Bu yerda yangidan 15 nafar yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Shu bilan bir qatorda bank jamoasi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari hamda oilaviy tadbirkorlikka qo'l urishni niyat qilgan oilalarga o'z faoliyatlarini boshlashlari uchun kreditlar ajratish orqali tadbirkorlikka jalb etish masalasiga alohida e'tibor qaratayotgani ham ibratlidir. Nukus shahridagi, kasb-hunar kolleji bitiruvchisi, yosh tadbirkor Salamat Mangitbaeva rahbarlik qilayotgan «**Mangitbaeva Gulnaz**» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga «Asaka» bank tomonidan aylanma mablag'larni to'ldirishga kredit mablag'lari ajratildi. Bankdan olingan imtiyozli kredit hisobiga yosh tadbirkor nonvoyxona faoliyatini kengaytirib, non mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravarga oshirish niyatida. Buning natijasida qo'shimcha 3 nafar yangi ish o'rinlari yaratiladi va yosh yigit-qizlar ishga qabul qilinadi.

«Asaka» bank Qoraqalpog'iston filiali tomonidan tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga ham alohida e'tibor qaratilyapti. Bunda Prezidentimizning 2004 yil 25 maydagi «O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Mazkur Farmonni rahbarlikka olgan bank filiali tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi xotin-qizlarni 0,7 mlrd.so'mga yaqin miqdordagi kredit mablag'lari bilan ta'minladi.

–2009 yildan beri «Asaka» bank mijoziman, - deydi tadbirkor Gulshat Nizamatdinova. –«Asaka» bankning moliyaviy yordamida men o'z tadbirkorlik faoliyatimni yo'lga qo'ydim. Ishim samarali bo'lyapti, oilamga baraka kirdi. Bular hammasi «Asaka» bankning hamkorligi sharofati bilan amalga oshayapti.

Bir so'z bilan aytganda, «Asaka» bankning Qoraqalpog'iston filiali yuqori sifatli bank xizmati ko'rsatish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, oilaviy biznesni rivojlantirish va el-yurt farovonligiga xizmat qiladigan istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirmoqda.